

## “Rutan” preparati 2015-yilda yaratilgan

Hozirda turli ommaviy axborot vositalarida muhokama qilinayotgan "Rutan" preparati O'zR FA Bioorganik kimyo instituti direktori, akademik Sh.I.Salixov rahbarligida uzoq yillik ilmiy izlanishlar natijasida yaratilib, klinik sinovlardan muvaffaqiyatli o'tgan va 2015-yilda tibbiyot amaliyotida qo'llash uchun ruxsat berilgan.

Preparat gripp virusining turli shtammlariga nisbatan samarali ta'sirga ega bo'lgan, zamonaviy tibbiyotda qo'llaniluvchi analoglari bilan raqobatlasha oladigan viruslarga qarshi kurashuvchi samarali vosita hisoblanadi. (<https://www.youtube.com/watch?v=9aOHMZCNjxQ&t=1s>)

“Rutan” preparatining organizmda endogen interferonning sintezini 8-10 marotaba kuchaytirishini va turli viruslarga qarshi kurashda immun statusini tezda oshirishini ko'rsatgan. Tadqiqotlar Rossiya virusologlari bilan hamkorlikda olib borilgan. Keyinchalik O'zbekistonda Virusologiya instituti va Respublika patologo-anatomik markazi xodimlari bilan hamkorlikda davom ettirilgan.

Avval xabar qilganimizdek, (<http://academy.uz/uz/news/ilmiy-hamkorlik-natijalari-dolzarb-masalalar-yechimi>) xitoylik hamkorlar tadqiqoti natijasida “Rutan” preparati SARS-Cov-2 virusini gidrolaza orqali ingibirlash darajasi 78,3 % tengligi aniqlangan. Shu bilan birga qo'shimcha va nojo'ya ta'sirlari yo'qligi, toksiklik darajasi nihoyatda past bo'lgani uchun viruslarga qarshi qo'llanilayotgan boshqa dori vositalariga nisbatan uning davolash samarasi yuqori bo'lishi mumkin degan xulosa keltirilgan.

Shinjon fizik-kimyoviy texnika instituti o'zining ta'sischiligida Toshkent shahrida tashkillangan va 2018-yilda ishga tushirilgan “China-Uzbekistan technical park” texnoparkida “Rutan” dori vositasini ishlab chiqarishni taklif qilgan va joriy yil 9-iyun kuni mutasaddi rahbarlar ishtirokida ushbu preparatning dastlabki partiyasi O`zR Sog'liqni saqlash vazirligiga topshirildi.